

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Pedagogika-psixologiya kafedrası

Pedepat

**MAVZU Pedagogikani o'quv predmeti sifatida joriy etilishi va
o'qitish metodlari**

Bajardi: *Xo'jamova Gulmira*

Rahbar: M.Qodirova

Jizzax 2014

Ta'lim sohasiga berilayotgan e'tiborning asosiy yo'nalishlaridan biri bu ushbu sohaga zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikasiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirishni keng joriy etish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bilan belgilanadi. Bunda yurtimizning har bir burchagiga, eng chekka hududlaridagi maktab, lisey va kollejlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari, shuningdek, internet tizimi bilan ta'minlanishi, o'quvchilarni ushbu texnologiyalardan foydalanishga doir bilimlarni o'zlashtirishlari uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanishga o'tishi, unda demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, jamiyat ma'naviyatini yangilash, davlat va ijtimoiy qurilish sohalarida yuqori natijalarga erishishda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hozirgi yosh avlodning, butun millatning sog'lig'ini asrash muhim masala hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari – bu ta'lim tizimini demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan bog'liq. Chunki, insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy va ma'naviy farovonligini, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliqi kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, baynalmilalchilik, odoblilik, vijdonlilik, iymon-e'tiqodlilik, mehmondo'stlik, kamtarlik, or-nomusni, sharm-hayo va iffatni e'zozlash, tinchliksevarlik, olijanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Biz tanlagan ushbu mavzu mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'riqlarini o'zida ifoda etadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxs milliy modelimizning asosiy tashkil etuvchisi sifatida belgilangan bo'lib, unga nisbatan qo'yiladigan talablarning amalga oshirilishi ta'lim islohotlarining natijasini belgilab beradi. O'z navbatida mazkur hujjatda shaxsning ijodkorligi va intellektual qobiliyatlari barkamollikning asosiy belgilari sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqadigan asosiy vazifa ta'lim tizimida shaxsda ijodkorlik va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish orqali uning barkamolligiga erishishdan iborat.

Pedagogikani qanday o'qitish va uni qanday o'rganish kerak? Bu masalalar pedagoglarni har doim chuqur fikr yuritishga majbur etgan. Nazariy pedagogika bo'yicha ilk asarlardan biri Ya.A. Komenskiyning «Buyuk didaktika»si bo'lib, unga muallif «hammani barcha narsalarga o'rgatishning umumiy san'atini» qamrab olingan o'quv qo'llanmasi deb qaralgandi. Pedagogikaning tabora rivojlanib borishi bilan uni o'qitish hamda o'rganish masalalarining ahamiyati ham ortib boradi. Turli mamlakatlar pedagoglari o'qituvchini pedagogik nazariyani o'rganish, uning eng yaxshi yutuqlari bilan tanishishga qizg'in va zo'r ishonch bilan da'vat etadilar.

Pedagogika o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlashda nazariyani o'rganishga bunday jiddiy ahamiyat berar ekan, xilma xil mashqlar yordamida o'qituvchi tajribasini shakllantirishni xam nazardan qochirmaydi. O'qituvchi , - deb ta'kidlagan edi K.D.Ushinskiy – nazariyani o'rganishdan tashqari bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasini ham egallashi lozim. A. Disterverg – o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlanayotgan yoshlarni amaliy mashq qildirishga katta ahamiyat bergan. A.Disterverg faoliyatining shiori : - «Tajriba va fikr yuritish, amaliyot va nazariya , tabiiy qobiliyat va maxsus ta'lim o'zaro birikib, o'qituvchini tarkib toptiradi».

O'qituvchilarni tayyorlashda nazariy o'qitish va amaliy faoliyat o'rtasidagi chinakam uyg'unlikka darhol hamda birdaniga erishilmagan. Amaliy faoliyat afzallik berilgan hamda nazariyani o'rganish o'qitishga yetarlicha baho berilmagan va aksincha bo'lajak o'qituvchilarni amaliy tayyorlash hisobiga nazariyani o'rganish ustunlik qilgan davrlar ham bo'lgan.

Ta'limning rivojlanishi, uning ko'lamlari kengayib borishiga qarab yosh o'qituvchilarni amaliy o'qitish ham takomillashib bordi.

Bu jarayonga A.S. Makarenko o'qituvchi va tarbiyachilarni maxsus tayyorlash zarur. U tarbiya metodikasini yaratish haqidagi masalani o'rta tashlab, uning asoslarini , shuningdek , metodikaning ayrim aktual va eng qiyin masalalarini ishlab chiqishda ko'p ishlarni amalga oshirdi. A.S. Makarenko bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarni o'tkazishga amaliy tayyorlashni qattiq talab qildi, tarbiyalanuvchilar bilan muloqotda bo'lish, ular bilan suhbatlar o'tkazish, real tarbiya jarayonida yuzaga keluvchi turli pedagogik vaziyatlarni hal etish bo'yicha mashqlarni o'tkazishni tavsiya etadi.

Pedagogika o'qitish metodikasi fan sifatida - ta'limni qonuniyligini, tarbiyalanuvchi va o'quvchi – talabalar tomonidan qanday o'rganilsa, uni boshqarib turadigan tarbiyachi va pedagoglarni ta'lim berish va tarbiyalash faoliyatini o'rganadi.

Ta'lim va tarbiya har biri alohida vazifani bajarsada, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liq holda yagona pedagogik jarayondir.

Pedagogika fanining vazifalari:

1.Ta'lim – tarbiya konuniyatlari va ularning jarayonlari, ta'lim – tarbiyaning boshkarish konuniyatlarini ochish.

2.Pedagogik faoliyat tajriba va amaliyotini urganish, ommolashtirish.

3. Ta'lim, ta'lim berish, tarbiyalash metodlari, vositalari, metodlari, shakllari, ta'lim tizimi uni boshkarish yullari buyicha yangi texnologiyalar yaratish.

4. Ta'lim sistemasini avvaldan loyixalashtira olish.

5. Pedagogik tadqiqot ishlarining pedagogik faoliyatda kullash, yangi nazariya, metodologiyani yaratish.

Pedagogika ukitish metodikasi formasi

1. Pedagogika kursining optimal mazmuni ishlab chikish.

2. Bulajak ukituvchilarga ukituvchilarning yanada yuksalrok natijalarga erishishning kandy kilib ta'minlash mumkinligini ta'minlash.

3. Bulajak ukituvchilarning ta'lim – tarbiya jarayoni tashkil etish kunikma, malakalari bilan kurollantirish uchun ularning metod va usullarni sistemalashtirish.

4. Xozircha tuplangan amaliy tajribalarning sistemalashtirish va kelajakka tavsiyalarning ishlatilishi.

5. Bulajak ukituvchilarning uz faoliyatiga ijodiy yondashuviga urgatish.

Pedagogika ukitish metodika fanining kiskacha mazmuni.

- muvaffakiyat uchun mutaxassislikka oid bilimlar kifoya kilmaydi.

- pedagogikani yaxshi bilmay turib, xususiy metodikani chukur uzlashtirib bulmaydi.

- pedagogika ukitish metodika fakat kandy kilib ukitishni emas, ukitishga ijodiy yondashishni urgatish kerak.

- talabani dialoga chakirishi va urgatish va fikrlashga urgatish lozim buladi.

Pedagogika ukitish metodika fanining predmeti: Pedagogika fanining ukitish jarayoni.

Pedagogika ukitish metodikasi fanining maksadi: Bulajak ukituvchining pedagogika fanidan chukur bilim egallashini ta'minlash uchun pedagogika fanining ukitadigan ukuvchini metodik bilimlarning kurollash uchun xizmat kiladi.

Pedagogika ukitish metodikasi: «Pedagogika fanining ukitishda ijodiy yondashuvini urgatadi.

Pedagogika ukitish metodika bu nazariya va amaliyotning sintezi, ya'ni pedagogika ukitish jarayonini, ta'lim mazmuni shakl va metodlari ukituvchi va ukuvchilarning faolligining birligi sifatida ukitiladi.

Pedagogika ukitish metodikasi: uzining butun dikkat e'tiborining ta'lim – tarbiya prinsiplari va koidalari shakl va metodlarining asoslab berishga karatiladi bundan maksad bulajak ukituvchilarning kasbiy tayyorligini ta'minlashdan iborat.

Pedagogika fani – pedagogika ukitish metodika fani uchun obyekt va ilmiy metodologiya bulib xisobdanadi. Shuning uchun pedagogika ukitish metodikasi pedagogikada kullanilgan tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Pedagogika ukitish metodikasi pedagogika fanlarining bir soxasi bulib, u pedagogikaning va pedagogika metodologiyasining rivojlanish davrida shakllandi.

Pedagogika ukitish metodikasi pedagogika xususiy va umumiy metodologiyasini kullaydi. Bu metodika uchun uz predmeti bulishi pedagogika ukitish jarayonining tadqiq etishda tugri yunalishdan borish imkoniyatini beradi.

Shunga karamay pedagogika ukitish metodikasi barcha pedagogik fanlari singari uz tarakkiyotida 2 asosiy boskichni bosib utadi.

1.Tushuntirish.

2.Yaratish.

Tushuntirishda: pedagogikani ukitish prinsiplarining, mazmunini, metodlarining va ukuv jarayonlarini, asoslashga butun diqqat e'tiborini karatadi.

Yaratishda: xuddi shu ya'ni pedagogika ukitish faniga yangilik yaratish.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo'yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylashtirishdan iborat bo'lib, bo'lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustivor bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Tarbiyaviy ishlar rejaları gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta'lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya'ni fizika, kimyo, biologiya, matematika, shuningdek, texnika fanlari va umuman talim tizimida o'tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma'naviy-ahloqiy ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e'tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko'rsatib berishni, talaba yoshlarni o'qitish orqali ma'naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. O'quv dasturlarining, darslik va qo'llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta'limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tayyorlashda ta'limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya'ni yosh mutaxassislarning ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlashga katta e'tibor berilishi zarur.

Hozirgi kun fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur'atlari tobora jadallashmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Shaxsning ma'naviy, ruhiy kamoloti ta'minlanmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama bo'ladi va kutilgan natijani bermaydi. Ruhiy ibtido yoshlar qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, ularning umuman millatning ruhiy-ma'naviy rostdanishiga yordam berishi kerak.

Barkamol shaxsni tarbiyalash gumanitar ta'lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkalanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomus, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlik, fidoiylik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarini tarbiyalash maorif va oliy ta'lim tizimida ustivor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, siyosatda, iqtisodda va ma'naviyat sohasidagi islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq.

Barcha talaba-ta'lim oluvchilarni Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralarining mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhbatlarini, uchrashuvlar tashkil etish-bular hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan turli xil to'garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasb-hunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg'un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir.

Tarbiyaviy maqsad – aniq o'lchamli ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g'oya, yo'nalish (aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi va boshqalar) ajralib turadi.

Tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida pedagogning vazifasi professor-o'qituvchilarning murabbiylik faoliyatini asosiy maqsadga yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta'sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashxis qo'yishdan iboratdir.

Davlat va jamiyatimiz oldida turgan hozirgi maqsadlar bilan boshlanuvchi ijtimoiy pedagogik buyurtmadan kelib chiqqan holda, uzluksiz tarbiya tizimi mazmuniga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiritiladi:

vatanparvarlik tarbiyasi	axloqiy tarbiya
mafkuraviy tarbiya	iqtisodiy tarbiya
fuqarolik tarbiyasi	jismoniy-gigiyenik tarbiya
ekologik tarbiyasi	kasbiy tarbiya
tarixiy tafakkur tarbiyasi	milliy g'urur tarbiyasi
jamoaviylik tarbiyasi	oilaviy tarbiyasi
huquqiy tarbiya	diniy bag'rikenglik tarbiyasi
baynalmilal tarbiya	badiiy-estetik tarbiya
intellektual tarbiya	mehnat tarbiyasi

Barkamol shaxs tarbiyasi – shaxsni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, Vatan mustaqilligi mustahkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyatli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar majmuasidir. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – Davlat va jamiyatga xizmat qiluvchi, Vatanga fidoiy, ahloqiy barkamol intellektual kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgandan so'ng barcha jabhalarda bo'lganidek, ta'lim-tarbiya sohasida ham buyuk o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi kunda maktab ta'limi tizimida, umuman, xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida o'qitish uslublarining boy zahirasi vujudga keldi. Agar ta'limda to'g'ri usul tanlasak, ko'zlangan natajaga oson va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. Ta'lim-tarbiya sohasidagi masalalarning to'xtovsiz murakkablashib borishi va yangi muammolar, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi, o'qitish usullarini muttasil yangilab turishni, xalq pedagogikasidan ijodiy foydalanishni talab qiladi.

O'qitishning didaktik usullari va ularni o'rni bilan yangilab borish o'qituvchilar oldiga yosh avlodni kamolga yetkazishdek vazifani qo'ydi.

O'qitish usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi.

O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Ta'lim berish, har bir mavzuning mag'zini talabalar ongiga yetkazish mahorati o'qituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutola qilishni talab qiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuni mag'zini talabalar ongiga mohirona yetkaza oladi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi.

Talim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining ma'lum fan ilmini o'quvchilar ongiga yetkaza olish mahorati, shu o'quvchilarni bo'lg'usi hayot yo'llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, talimning mohiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'dim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi. O'qituvchi o'zining shaxsiy sifatlari: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibligi, fan asoslari va g'oyalarini chuqur bilishi bilan talabalarga o'rnak bo'lishni talab qilinadi.

Bunday o'qituvchilardan bilim olayotgan talabalar nimani bilish kerak ekanligini idrok qilib beradilar. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda, uni aniq his qilib, tasavvur qilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar yechadilar. (Iqtisodiy, matematik, pedagogik. So'ngra bilimlari mohiyatini tushunib oladilar. Shu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnda boshqa fanlardan ham bilim olish va amaliy mashg'ulotlar evaziga ularda ko'nikmalari boyib boradi.

Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Talabalar bilan bo'lgan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Talim-tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmasligimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni tamasiz yetkaza olish xususiyatlari o'quvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmaslik kerak. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishishi yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakgeriga qarab quyidagi turlarga ajralsh mumkin:

So'z orqali ifodalanadigan metod;

Ko'rgazmali metod;

Amaliy metod.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi.
- Laboratoriya ishlar metodi.
- Mustaqil ishlar metodi.
- Muammoli evristik modellashtirish metodi.
- Ilmiy tadqiqot metodlari.
- O'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.
- O'qitishning induktiv va diduktiv metodi.
- O'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi. Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: - so'z orqali uzatish va informatsiyani eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, maruza, so'zbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: - o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar)

Uchinchi guruh metodlari: o'quv informatsiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Ta'limning rag'batlantirish metodlari:

1. Talimga qiziqishni rag'batlantirish metodi.
2. Ta'limga burch va mas'uliyatini rag'batlantirish metodi.

Xuddi shuningdek, ta'limda nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari quyidagilar.

1. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
2. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
3. Laboratoriya va amaliy nazorat va o'z -o'zini nazorat qilish metodi.
4. Test nazorati.

Bu metodlardan talabalarda bilish faoliyatini, qabul qilish, anglash va amalda qo'llash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va o'qitish metodi.

Ushbu tarzda metodni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O'quvchilar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab yetish orqali uni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi.

Mavzuning asosini tushungirish va uqtirishda hikoya usulidan foydalaniladi. O'quv materiallari mazmunini orqali bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun, hikoya metodiki qo'llash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan ma'lumot va voqoyalarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi. Hikoyani bayon qilish, uqtirish metodlarini samarali qo'llash shartlari: rejani qunt bilan qo'llash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini

taminlash, misollar va hikoyalarni muvaffaqiyatli tanlash, tushuntirish va uqtirishda zaruriy emosioanallikni tanlash darkor.

Hikoya bir necha turga bo'linib, hikoya muqaddima, hikoya bayon, hikoya xulosalarga bo'linib, ular mavzuka yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuni tushuntirishda og'zaki bayon qilish, tushuntirish yoki biror bir lavhani ko'rsatish, (illyustrasiya)ni ko'zda tutib, hikoyadan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy ko'yilishi, obrazli isbotlash va umumlalashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi, hikoya qilish mavzuning maqsadini bir qismiga xizmat qiladi.

Maruza matnini tushuntirish va uqtirish informasiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlashini faollashtirish usullari, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlalashtirish va boshqa usullaridan foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi atroflicha o'ylagan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Talimning muammoli-qidiruv metodlari; tizimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metoddari yordamida foydalaniladi. Ta'limni muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini qo'zgatadigan, faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustaqil holda yoki o'qituvchining yordamida uni yechish, hal qitish uchun ijodiy izlanadilar. Muammoli o'qitish yoki muammoli masalalarning yechilishini talab qilish o'quvchilarning egallagan ilmiy bilimlariga hosil qilingan ko'nikmalariga asoslangan holda izlansa yoki olingan bilimlarini xotirlasa, bemalol o'z yecha oladigan qilib tuzilish kerak. Aks holda, masala talabaniig ulgurmagan bilimlariga ham asoslanib tuzilsa, u holda talaba o'ziga ishonmay qoladi, o'zidagi bilimga ishonchi yo'qoladi, har qanday ilmiy ta'lim talaba uchun muammolidir. Chunki talabaga hozirgacha noma'lum bo'lgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli o'qitish talabaning fikrlash faoliyatini o'stiradi. Har narsani bilishga qiziqyash uyg'otadi. Fahm-farosatli, mustaqil ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Qanday sonning birinchi darajali hosilasi 1 ga teng?

Logorifm manfiy asosda nima uchun ma'noga ega emas?

Nima uchun trigonometrik funksiyalarning nomi o'z juftini o'zgartiradi?

Yoki pedagogik muammoli masalalar yechimini qaraylik.

Pedagogik masala:

Ota o'z o'g'lining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o'ziga va o'g'liga ham qadah to'ldirdi, o'g'lini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab o'g'liga qadah uzatadi. Siz oila a'zolarining bu voqyeaga bo'lgan munosabatlarini qaysi birini to'g'ri deb o'ylaysiz?

a) dadasi - o'g'lim muborak yoshing bilan tabriklaymak, shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik!

b) buvisi - jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma, hyech qachon ichmasin, martabasi ulug' bo'lsin, baxtli bola bo'lsin.

v) bobosi - mayli, dadangii so'zi yerda qolmasin, do'stlari oldida izza qilma, qadahni urishtirib, bir xo'plab bera qol.

g) oyisi - o'g'lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekakligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko'rmoqchi bo'ldi.

Bu tarzda test savollari muammoli tarbiyaviy masala, o'quvchining aqliy va axloqiy bilimini kengaytiradi. Ongini, tafakkurini charxlaydi. Insonlarga bo'lgan muomala madaniyatini takomillashtiradi. Shunga o'xshash masalalarni muttasil yechib borgan, aqliy va axloqiy bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lgan talaba komillikka erishib boradi.

Ma'naviy-ijodiy metodlar.

Inson manaviyatining shakllanishi juda murakkab jarayon. Insonning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda oila, atrof-muhit, jamiyat katga rol o'ynaydi. Ota-onaning mehri, atrof-dagilarning mehri, ularni olishlari bolani mustaqil fikrlashga va mustaqil ish boshlashga ishonchini uyg'otadi. Ustozlar, ota-onalar boladagi bu harakatni, ishonchni sezgandan boshlab, ularga sharoit yaratish va ularni to'g'ri yo'naltirishlari lozim. Ota-ona va ustozlar orasidagi tarbiya uzviyligi yoshlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Sen o'zing uddalay olasan, bunga qurbing yetadi, deb ishontirish va bu ishonchni "Ma'naviy-ijodiy metoyu" orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu metod uch bosqichda amalga oshiriladi:

a) o'quvchilarda bilishga qiziqishni uyg'ota bilish;

b) o'quvchilarning egallagan bilimiga va tajribasiga asoslangan holda masala qo'yish, hamda ularga suyanib masalalarni tahlil qilish;

v) o'rganish kerak bo'lgan muammo ustida mustaqil fikr yuritib xulosa olishga erishish.

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish jarayonida talabalar, insonning boy xazinasini uning o'zida yashiringanligini tushunadilar. Faqat buning uchun o'qituvchi ulardagi qiziqishni, yashiringan iqtidorini anglay bilishi kerak.

Ilm olish, odatiylik, aqlni peshlash, o'z ustida ishlash, hikmatlarni bilish, kamtarlik, ma'rifatli bo'lish kabi fazilatlariga faqat mehnat qilish va bilim olish, o'qib-o'rganish, hayotni kuzatish orqali erishish mumkin.

O'quv ma'ruza metodi: o'quv materialini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutadi, hikoya metodidan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabdigi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi. Hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlarini faollashtirish usullari, argumentlash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalardan foydalaniladi.

Suhbat metodi: Og'zaki bayon qilinning asosiy turlaridan biri. Tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan samarali usullardan biridir. Ko'pincha bu usul savol-javob usuli ham deb yuritiladi. Dars berish jarayonida o'tilayotgan mavzu yuzasidan kirish asosiy va yakunlovchi qismlarda suhbat, savol-javob metodi qo'llaniladi. Suhbat metodida atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «Sharq». 1998.
3. Prezident I.A.Karimovning O'zR Konstitusiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan bayram dasturidagi ma'ruzasi, 2009 yil 6 dekabr.
4. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 29 yanvar.
5. “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 27 yanvar.
7. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. -T., 1996.
8. Pedagogika. prof. A.Munavvarov tahriri ostida, o'quv qo'llanma. –T: “O'qituvchi”, 1996.
9. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildli. K.Hoshimov, Safo Ochil -T. : O'qituvchi, 1999.
10. Mahkamov U.I. Ta'lim oluvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. -T.: FAN, 1995.
11. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. “Turon-iqbol nashriyoti”, Toshkent, 2006.
12. Maxkamov U. Axloq-odob saboqlari. T. 1994.
13. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T. 1993.
14. Ismailova Z.I. Tarbiyaviy ish metodikasi. T. 2003.
15. Internet ma'lumotlari. ZIYONET, PEDAGOG.UZ, KUTUBXONA.UZ saytlari